

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJAT LOYIHASINING
QONUNCHILIKKA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyiha turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi

Ohangaron davlat o'rmon xo'jaligi va "Kuchlik neft bazasi" MCHJ o'rtasida tuzilgan mahsulot yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma. Shartnoma summasi 489 268 615,60 (to'rt yuz sakson to'qqiz million ikki yuz oltmis sakkiz ming olti yuz o'n besh so'm, oltmis tiyin) so'mni tashkil qiladi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Ohangaron davlat o'rmon xo'jaligi tomonidan 2022-yil 10-yanvar kuni ishlab chiqilgan va yuridik markazga taqdim qilingan.

4. Loyiha bo'yicha yuridik markaz xulosasi

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 437-456-moddalari, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagagi 670-I-son qonuni, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-sonli qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



Sh. Niyazova

2022-yil 10-yanvar